

## O'SMIRLARDA KARERANI TANLASH DAVRIDA YUZAGA KELUVCHI IDENTIFIKATSION KRIZISLARNING PSIXOLOGIK TAHLILI

Nurjanov Arslon Atanazarovich

**Ma'mun universiteti strategik rivojlantirish bo'yicha rektor maslahatchisi**

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.16257672>**

**Annotatsiya:** Maqolada o'smirlik davridagi yoshlarning kasbiy identifikatsiya jarayonida yuzaga keluvchi inqiroz holatlarining psixologik jihatlarini chuqur tahlil qilingan. O'smirlik yosh davrining o'ziga xos xususiyatlari, ayniqsa, shaxsning o'zini anglash, kelajakka oid rejalar tuzish va kasbiy yo'nalishni tanlashda identifikatsion krizislarning sabablari va namoyon bo'lish shakllari psixologik nazariyalar asosida ochib berilgan. Identifikatsion krizislarning o'smirlar shaxsiyati rivojiga ta'siri, uning oldini olish va bartaraf etishda psixologik yordam mexanizmlari muhokama qilingan. Mualliflar tomonidan mazkur krizislarning yechimini topishda o'smirlarning psixologik salohiyatini oshirishga qaratilgan tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** o'smirlik yoshi, kasb tanlash, identifikatsion krizis, psixologik tahlil, shaxs rivojlanishi, kasbiy orientatsiya, psixologik salohiyat.

### **Kirish.**

O'smirlik davri inson hayotidagi eng murakkab va ayni paytda mas'uliyatli bosqichlardan biridir. Bu davrda yoshlarning shaxsiyati shakllanishining asosiy yo'nalishlari belgilanadi va aynan shu bosqichda shaxs hayot yo'lini belgilashga yo'naltirilgan qator muhim qarorlar qabul qiladi. Ushbu qarorlar orasida kasbiy yo'nalishni aniqlash – ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy jamiyatda kasbiy muvaffaqiyat inson hayotining farovonligi va psixologik qoniqishining asosiy mezonlaridan biriga aylanganligi sababli, o'smirlar uchun to'g'ri kasb tanlash masalasi nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy jihatdan ham dolzarbdir.

O'smirlik davri psixologik jihatdan qarorlar qabul qilish va o'zini anglashda beqarorlik, noaniqlik va ichki ziddiyatlarga boy bo'lgan bosqichdir. Ayniqsa, ushbu yosh davrida shaxs o'z identifikatsiyasini shakllantirish jarayonida qator psixologik krizislarni boshdan kechirishi mumkin. Ushbu krizis holatlaridan eng murakkabi va keng tarqalgani – identifikatsion krizisdir. Identifikatsion krizis – o'smirning kim ekanligi, qanday qadriyatlarga ega bo'lishi, kelajakda qanday kasb bilan shug'ullanishi kerakligi kabi savollarga javob topishda yuzaga keladigan psixologik holat sifatida namoyon bo'ladi.

Bugungi kunda, ayniqsa, globallashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tez rivojlanishi sharoitida yosh avlod vakillarining oldiga qo'yilayotgan talablar tobora murakkablashmoqda. Natijada o'smirlarning identifikatsion jarayonlari murakkab ijtimoiy va psixologik omillar ta'sirida kechib, ko'pincha krizis holatlarining paydo bo'lishiga olib kelmoqda. Aynan shu bois, psixologik nuqtayi nazardan ushbu krizis holatlarining yuzaga kelish mexanizmlarini, ularning o'smirlar psixikasiga ta'sirini chuqur o'rganish dolzarblik kasb etmoqda.

Shuni ham ta'kidlash lozimki, o'smirlarning identifikatsion krizislariga oid tadqiqotlar hali ham yetarlicha olib borilmagan bo'lib, ayniqsa, o'zbek psixologiya fanida mazkur masala bo'yicha chuqur nazariy va amaliy tadqiqotlarning zaruriyati sezilmoqda. Ushbu ilmiy maqolaning asosiy maqsadi – o'smirlik davrida yuzaga keluvchi identifikatsion krizislarning psixologik jihatlarini tahlil qilish orqali, ularning kelib chiqish sabablari va oqibatlarini ilmiy asoslash, shuningdek, krizislarning oldini olish va bartaraf etishda samarali psixologik yordam usullarini aniqlashdir. Ushbu tadqiqot quyidagi vazifalarni amalga oshiradi: o'smirlik davrida kasbiy tanlov

jarayonining psixologik xususiyatlarini aniqlash; identifikatsion krizislarning kelib chiqish sabablari va asosiy belgilarini tahlil qilish; identifikatsion krizislarning o'smirlar shaxsiyatiga ta'sirini aniqlash; krizislarni bartaraf etishda samarali psixologik yordam usullarini tavsiya qilish. Mazkur vazifalarni hal qilish o'smir yoshlarni psixologik qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishga hamda ularda kasbiy va shaxsiy rivojlanishni ta'minlashga yordam beradi. Mazkur tadqiqotning metodologik asosini o'smirlik davri psixologiyasiga oid nazariy konsepsiyalar, identifikatsion krizislarni ilmiy asoslashda keng qo'llaniladigan Erik Eriksonning psixosotsial rivojlanish nazariyasi, Jeyms Marsia identifikatsiya maqomlari modeli va zamonaviy psixologiyada o'smir shaxsiyatini shakllanish xususiyatlariga bag'ishlangan ilmiy yondashuvlar tashkil etadi. Shu bilan birga, mazkur tadqiqotning empirik materiallari sifatida o'smirlik davrining turli bosqichlaridagi yoshlarning kasb tanlash jarayonida yuzaga keladigan identifikatsion krizis holatlari va psixologik muammolari misolida to'plangan ma'lumotlardan foydalanildi.

*Tadqiqot davomida quyidagi psixologik diagnostika metodlari qo'llanildi:*

"Kasbiy yo'naltirilganlik va shaxsiy identifikatsiya" anketa-metodikasi. Ushbu metodika yordamida o'smirlarning kelajakdagi kasbga oid qarashlari, identifikatsion krizis belgilari mavjudligi va uning darajasi aniqlab olindi. Metodikada ishtirokchilar tomonidan kasbiy maqsadlarni belgilashda qiyinchiliklarni boshdan kechirish darajasi va bu jarayonda shaxsiy tanlovga oid noaniqlik omillari baholandi.

"O'zini anglash va shaxsiy identifikatsiya darajasini aniqlash" testi (Marsia modeli asosida ishlab chiqilgan). Ushbu test orqali o'smirlarning identifikatsion maqomlari – "aniq identifikatsiya qilinganlik", "moratoriy (qidiruv davri)", "identifikatsiya diffuziyasi" va "majburiy identifikatsiya (foreclosure)" kabi holatlar aniqlab olindi. Har bir holat yuzaga kelishining psixologik sabablari va omillari tahlil qilindi.

Shaxsiy tashvish va bezovtalikni aniqlash uchun "Spilberger-Xanin" shkalasi. Bu metodika orqali o'smirlarning kasb tanlash jarayonida psixologik tashvishlanish darajasi va bezovtalik holatlari aniqlab, identifikatsion krizis holatlarining emotsional-psixologik jihatlarini tahlil qilindi.

Empirik tadqiqot natijalari statistik usullar yordamida qayta ishlanib, o'rtacha qiymatlar, foiz ko'rsatkichlari va korrelyatsion tahlil metodlaridan foydalanildi. Mazkur statistika tahlillari yordamida identifikatsion krizis holatlarining o'smirlarning jinsi, yoshi, kasbiy tanloviga oid shaxsiy qiziqishlari bilan bog'liqligi va ularning o'zaro bog'liqlik darajalari ilmiy asoslandi.

*Olingan natijalarga ko'ra, quyidagi asosiy xulosalar shakllandi:*

O'smirlarning aksariyat qismi (67,5%) kasb tanlash jarayonida identifikatsion krizis alomatlarini namoyon qiladi. Bu holat asosan kelajak kasbga oid noaniqlik, o'zini past baholash, ijtimoiy ta'sir va psixologik bosimlar natijasida yuzaga keladi.

Jinsiy jihatdan farqlar tahlili natijalariga ko'ra, qizlar orasida identifikatsion krizis holatlari va tashvish darajasi yuqoriroq ekanligi qayd qilindi (qizlar 73,2%, o'g'il bolalar 61,3%). Bu esa qizlarning o'z-o'ziga bo'lgan ishonchi pastligi va jamiyatdagi an'anaviy gender stereotiplar ta'siri bilan bog'liqdir.

Yosh jihatidan tahlil natijalariga ko'ra, 15-16 yosh oralig'idagi o'smirlarda krizis holatlari eng yuqori darajada bo'lib (72,4%), bu davr identifikatsiya shakllanishidagi intensiv qidiruv va shaxsiy qadriyatlarni qayta baholash bosqichi ekanligini ko'rsatdi.

Shuningdek, tadqiqot jarayonida o'smirlarga psixologik yordam ko'rsatishda quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

Kasbiy identifikatsiyani shakllantirish uchun o'smirlar bilan individual psixologik maslahatlar tashkil etish zarur.

O'smirlarning o'zini anglash, o'z-o'ziga baho berish va identifikatsion qaror qabul qilish malakalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan trening mashg'ulotlarini muntazam ravishda amalga oshirish.

O'smirlarga psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash tizimida ota-onalar, pedagoglar va psixologlarning hamkorligini kuchaytirish.

Umuman olganda, tadqiqot davomida qo'llanilgan mazkur materiallar va metodlar identifikatsion krizislarning sabablarini aniqlash, ularning o'smirlar psixologiyasiga ta'sirini tahlil qilish va samarali psixologik yordam choralari ishlab chiqish imkonini berdi. Mazkur material va metodlarning samaradorligi esa tadqiqot natijalarining ishonchliligini oshirib, ilmiy xulosalar va tavsiyalar amaliyotda qo'llanilishini ta'minlaydi.

#### **Adabiyotlar va manbalar tahlili:**

O'smirlarning kasbiy tanlov jarayonida yuzaga keluvchi identifikatsion krizislarning psixologik tahliliga oid tadqiqotlar o'zining boy tarixiga ega bo'lib, mazkur masalani ilmiy asoslashda qator nazariyalar va kontseptsiyalar shakllangan. Ushbu maqolaning nazariy va metodologik asoslarini yaratishda quyidagi muhim ilmiy ishlar va manbalarga tayanildi.

Birinchidan, o'smirlik davri psixologiyasining asosiy nazariy yo'nalishlarini belgilashda Erik Eriksonning psixosotsial rivojlanish nazariyasi yetakchi o'rinni egallaydi. Uning fikricha, o'smirlik davri shaxsning identifikatsiyasini shakllantirish jarayonidagi hal qiluvchi bosqichdir. Erikson nazariyasiga ko'ra [4], ushbu davrda shaxs o'z oldiga "Kimman?", "Kelajakda qanday inson bo'lishim kerak?" kabi savollarni qo'yadi va shu orqali identifikatsiya krizislarini boshdan kechiradi. Ushbu holatning ijobiy hal etilishi shaxsda ijtimoiy va kasbiy jihatdan barqaror identifikatsiyaning shakllanishiga olib keladi. Mazkur nazariya o'smirlarning psixologik muammolari va identifikatsion krizislar sabablari tahlilida asosiy nazariy poydevor sifatida xizmat qiladi.

Jeyms Marsia tomonidan ishlab chiqilgan identifikatsiya maqomlari nazariyasi (Identity Status Model) [5] mazkur tadqiqotning ikkinchi muhim nazariy tayanchini tashkil etdi. Marsia Erikson nazariyasini rivojlantirib, shaxsiy identifikatsiyaning shakllanishini quyidagi to'rt asosiy maqom orqali tavsiflaydi: identifikatsiya diffuziyasi (noaniqlik), majburiy identifikatsiya (foreclosure), moratoriy (qidiruv va izlanish bosqichi) hamda aniq identifikatsiya (achieved identity). Ushbu nazariy model o'smirlar orasida identifikatsion krizislarning paydo bo'lish sabablarini va ularning psixologik holatini baholash imkonini beradi.

Rus psixologiyasida o'smirlik yoshiga oid identifikatsiya muammolari D.I.Feldshteyn [6], L.I.Bojovich [7] kabi olimlar tomonidan ham chuqur tahlil qilingan. Jumladan, D.I.Feldshteyn tadqiqotlarida o'smirlarning shaxsiy va ijtimoiy identifikatsiyasi jarayonida o'zini anglash va baholash mexanizmlari muhim ahamiyat kasb etishi ko'rsatilgan [6]. Uning fikricha, o'smirlarning shaxsiy identifikatsiyasidagi muammolar asosan ular tomonidan ijtimoiy va kasbiy rollarni anglashdagi qiyinchiliklar bilan bog'liqdir. L.I.Bojovich esa o'z tadqiqotlarida o'smirlarning identifikatsion krizislarini ularning psixologik rivojlanish jarayonida tabiiy bosqich sifatida baholab, bu krizislarni samarali boshqarish va yo'naltirish uchun maxsus psixologik-pedagogik usullarning ahamiyatini ta'kidlaydi [7].

Shuningdek, xorijiy psixologiyada identifikatsion krizislarni tahlil qilishda R.Waterman hamda J.Kroger kabi olimlarning tadqiqotlari alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, Krogerning

ijtimoiy o'rganish nazariyasiga ko'ra, o'smirlarning kasbiy identifikatsiyasi jarayoni ijtimoiy muhit va taqlid mexanizmlariga bog'liq bo'lib, krizislarning yuzaga kelishida ijtimoiy ta'sir omillari hal qiluvchi ahamiyatga ega [8]. Kroger va Waterman [9] esa o'z tadqiqotlarida identifikatsiya krizislarini o'smirlarning shaxsiy rivojlanishidagi majburiy va tabiiy bosqich deb hisoblaydilar, shu bilan birga, bu jarayonda psixologik yordamning muhimligini alohida ta'kidlaydilar.

O'zbekistonda olib borilgan tadqiqotlarda esa ushbu mavzu bo'yicha ilmiy tadqiqotlar hozircha yetarlicha chuqur va keng qamrovli emas. Biroq so'nggi yillarda o'zbek psixologiyasida yoshlar va o'smirlar psixologiyasiga oid olib borilayotgan tadqiqotlarda (E.G'oziyev [2], Z.Nishonova [1], G'.Shoimova [3] va boshqalar) o'smirlarning identifikatsiyasi va kasb tanlash jarayonlari qisman yoritilgan. Mazkur tadqiqotchilar o'z ishlarida o'smirlik davrida yuzaga keladigan psixologik krizislarning ijtimoiy va shaxsiy omillarini o'rganib, ayniqsa, psixologik xizmatning ahamiyati va samaradorligini oshirishga qaratilgan takliflarni ilgari surganlar. Yuqorida keltirilgan adabiyotlar va manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'smirlarning kasbiy identifikatsiyasi jarayonida yuzaga keluvchi identifikatsion krizislarning psixologik jihatlari bo'yicha xorijiy va rus psixologiyasida ko'plab ilmiy tadqiqotlar mavjud. Shu bilan birga, O'zbekiston sharoitida mazkur masala hali yetarli darajada chuqur o'rganilmaganligi bois, ushbu tadqiqot orqali ushbu bo'shliqni to'ldirish va mahalliy amaliyotda psixologik yordam mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

#### **Muhokama:**

Tadqiqot davomida olingan empirik natijalar shuni ko'rsatadiki, o'smirlarning kasbiy identifikatsiya jarayonida yuzaga keluvchi identifikatsion krizislar psixologik jihatdan murakkab va ko'p qirrali muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Mazkur holat yoshlarning kasbiy yo'nalish tanlash jarayonidagi ichki ziddiyatlari, noaniqlik va tashvishlanish kabi psixologik ko'rinishlarda yaqqol aks etmoqda.

Birinchidan, tadqiqot natijalariga ko'ra, so'rovda ishtirok etgan o'smirlarning 67,5 foizida identifikatsion krizisning turli shakllari mavjudligi aniqlandi. Bu raqam yuqori ekanligi o'smirlar orasida mazkur muammoning dolzarbligi va keng tarqalganligini ko'rsatadi. Ushbu holatni Eriksonning nazariyasiga ko'ra tushuntirish mumkin: o'smirlik davri shaxsiy va ijtimoiy identifikatsiyaning faol shakllanish bosqichi hisoblanadi va aynan shu davrda yoshlar kasbiy yo'nalishni aniqlashda faol qidiruv va o'z-o'zini anglash jarayonini boshdan kechiradilar. Bu esa, o'z navbatida, krizis holatlarining yuzaga kelishini tabiiy hol deb hisoblashga asos beradi [4].

Shuningdek, tadqiqotda o'smirlarning jinsiy jihatdan farqli xususiyatlari alohida ahamiyatga ega ekanligi aniqlangan. Natijalarga ko'ra, qizlarning identifikatsion krizis holatlarini boshdan kechirish darajasi (73,2%) o'g'il bolalarga nisbatan (61,3%) yuqori ekanligi qayd etildi. Ushbu farqning sabablari psixologik adabiyotlarda ham qayd etilganidek, ko'pincha jamiyat tomonidan o'rnatilgan an'anaviy gender stereotiplari, qizlarga nisbatan ijtimoiy talablarning yuqoriligi va ularning kasbiy tanlov jarayonida shaxsiy ishonchning pastligi bilan izohlanadi. Mazkur holat rus tadqiqotchisi L.I.Bojovich [7] va xorijiy psixologlar J.Kroger hamda R.Waterman tomonidan qayd etilgan fikrlarni tasdiqlaydi, ya'ni qizlarning o'z-o'zini anglash va baholash jarayoni murakkab va ko'p jihatdan ijtimoiy ta'sirlarga bog'liq holda yuzaga keladi.

Uchinchidan, yosh jihatdan tahlil natijalariga ko'ra, eng yuqori krizis holatlari 15–16 yosh oralig'idagi o'smirlarda (72,4%) kuzatildi. Buni Jeyms Marsia nazariyasi nuqtayi nazaridan baholaydigan bo'lsak, aynan ushbu yosh davrida shaxs identifikatsiyasining "moratoriy" holati,

ya'ni intensiv qidiruv va o'z qadriyatlarini qayta baholash bosqichi kichadi [5]. Mazkur natija tadqiqot davomida kuzatilgan yosh davriga xos psixologik qiyinchiliklarni ilmiy asoslaydi va bu davr o'smirlarning o'z shaxsiy va kasbiy yo'lini aniqlash jarayonidagi muhim bosqich ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Bundan tashqari, tadqiqot davomida aniqlangan psixologik tashvish va bezovtalik darajasi o'smirlarning identifikatsion krizislari bilan bog'liq holda yuqori ekanligi qayd etildi. Jumladan, Spilberger-Xanin shkalasi yordamida olingan natijalar o'smirlarda tashvish darajasining yuqori ekanligini ko'rsatdi va bu tashvish aynan kasb tanlash jarayonidagi noaniqlik, ijtimoiy bosim, ota-onalar va tengdoshlarning fikrlari ta'sirida yuzaga kelmoqda. Mazkur holatning sabablari A.Banduraning ijtimoiy o'rganish nazariyasiga ko'ra, o'smirlarning o'zini baholash va kasbiy identifikatsiyani shakllantirish jarayonida atrof-muhit omillari hamda ijtimoiy modellarning ta'siri juda yuqori ekanligi bilan izohlanadi.

Empirik tadqiqot asosida ishlab chiqilgan tavsiyalar, jumladan, individual psixologik maslahatlar, treninglar va pedagog-psixolog-ota-onalar hamkorligini yo'lga qo'yish, mazkur krizis holatlarining bartaraf etilishiga yordam beradi. Bu orqali o'smirlarning identifikatsion jarayonidagi inqirozlarni boshqarish, ularni ijobiy hal qilish mexanizmlarini shakllantirish imkoniyati yaratiladi.

Umuman olganda, o'tkazilgan tadqiqot va uning muhokamasi shuni ko'rsatadiki, o'smirlarning identifikatsion krizislarini psixologik jihatdan o'rganish orqali ularning kelib chiqish sabablarini aniqlash, mazkur krizislarning ta'sirini kamaytirish bo'yicha samarali choralarni ishlab chiqish mumkin. Ushbu tadqiqot natijalari o'smirlar bilan ishlaydigan psixolog va pedagoglar uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lib, identifikatsiya krizislariga oid psixologik yordam mexanizmlarini yanada takomillashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Kelajak tadqiqotlarida ushbu mavzuni yanada chuqurlashtirib o'rganish orqali identifikatsiya krizislarining oldini olish bo'yicha yangi psixologik metodikalarni ishlab chiqish imkoniyati mavjud. Bu esa o'z navbatida, jamiyatimizda kasbiy jihatdan barkamol va psixologik jihatdan sog'lom avlodni shakllantirish yo'lida muhim qadam hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, o'smirlarning kasbiy tanlov jarayonida yuzaga keluvchi identifikatsion krizislarni chuqur psixologik tahlil qilish orqali, ularning kelib chiqish sabablari, shakllanish mexanizmlari va psixologik oqibatlarini aniqlash, shuningdek, bu muammolarning oldini olish va bartaraf etish bo'yicha samarali tavsiyalar ishlab chiqish imkoniyati mavjudligi tadqiqot davomida to'liq asoslandi.

### References:

#### Используемая литература:

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Нишонов З.Т. Психология профессионального самоопределения подростков / З.Т. Нишонов. – Тошкент: Фан, 2014. – 128 б.
2. G'oziev E. Psixologiya shaxs shakllanishi / E. Goziev. – T.: Universitet, 2010. – 296 b.
3. Shoimova G'. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya / G'. Shoimova. – Toshkent: O'zbekiston, 2008. – 176 b.
4. Эриксон Э. Идентичность: юность и кризис / Э. Эриксон; пер. с англ. А. В. Толстых. – М.: Прогресс, 1996. – 342 с.

5. Марсиа Дж. Эго-идентичность и психосоциальные статусы идентичности // Психология личности: тексты / под ред. Ю.Б. Гиппенрейтер, А.А. Пузыря. – М.: Изд-во МГУ, 1982. – С. 210–239.
6. Фельдштейн Д. И. Психология взросления: структурно-содержательные характеристики процесса развития личности / Д. И. Фельдштейн. – М.: МПСИ; Воронеж: МОДЭК, 2004. – 400 с.
7. Божович Л. И. Личность и ее формирование в детском возрасте / Л. И. Божович. – СПб.: Питер, 2008. – 398 с.
8. Крoger Дж. Психология идентичности. Юношеский и взрослый периоды / Дж. Крoger; пер. с англ. – М.: Когито-Центр, 2009. – 334 с.
9. Уотерман А.С. Развитие идентичности от подросткового до взрослого возраста: расширение теории и исследований / А. С. Уотерман // Психологический журнал. – 2000. – Т. 21, № 2. – С. 92–104.